

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SURDOPEDAGOGIK TA'LIMDA METODIK VA AMALIY KOMPETENSIYALAR INTEGRATSIYASINING KONSEPTUAL-HUQUQIY ASOSLARI

Malikova Xurshida Ikramovna

A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti, dotsent (PhD).

e-mail: kh.malikova2025@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-5124-2893>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada surdopedagogik ta'limda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining konseptual-huquqiy asoslari yoritiladi. Bo'lajak surdopedagogning metodik tayyorgarligi ta'lim mazmunini kar bolaning sof sensor imkoniyatigagina moslash emas, balki axborotni bir vaqtning o'zida vizual, akustik, kinestetik va taktil modalliklar orqali qabul qilish imkonini beruvchi ta'limning universal dizayni konsepsiyasiga asoslanishi tahlili qilinadi.

Kalit so'zlar: Surdopedagogik ta'lim metodik kompetensiyalar, amaliy kompetensiyalar, integratsiyasiya, konseptual-huquqiy asoslar bo'lajak surdopedagoglar, kasbiy kompetensiyalar, pedagogik imkoniyatlar, pedagogik vazifalar, o'qituvchi, kasbiy faoliyati .

КОНЦЕПТУАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ МЕТОДИЧЕСКИХ И ПРАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В СУРДОПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Маликова Хуршида Икратовна

Национальный научно-исследовательский институт профессионального развития педагогов и обучения новым методикам имени А. Авлони, доцент (PhD).

Аннотация.

В данной статье рассматриваются концептуальные и правовые основы интеграции методических и практических компетенций в сурдопедагогическое образование. Методическая подготовка будущего учителя сурдопедагогике основывается на концепции универсального дизайна образования, которая позволяет не только адаптировать содержание обучения к чисто сенсорным способностям глухого ребенка, но и одновременно воспринимать информацию посредством визуальной, акустической, кинестетической и тактильной модальностей.

Ключевые слова: методические компетенции в сурдопедагогическом образовании, практические компетенции, интеграция, концептуальные и правовые основы, будущие учителя сурдопедагогике, профессиональные компетенции, педагогические возможности, педагогические задачи, учитель, профессиональная деятельность.

CONCEPTUAL AND LEGAL FOUNDATIONS FOR THE INTEGRATION OF METHODOLOGICAL AND PRACTICAL COMPETENCIES IN DEAF EDUCATION

Malikova Xurshida Ikramovna

A. Avloni National Research Institute for Professional Development of Teachers and Training in New Methodologies, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article discusses the conceptual and legal foundations of the integration of methodological and practical competencies in surdopedagogical education. The methodological preparation of a future surdopedagogical teacher is based on the concept of universal design of education, which allows not only to adapt the content of education to the purely sensory capabilities of a deaf child, but also to simultaneously perceive information through visual, acoustic, kinesthetic and tactile modalities.

Keywords: Surdopedagogical education methodological competencies, practical competencies, integration, conceptual and legal foundations, future surdopedagogical teachers, professional competencies, pedagogical opportunities, pedagogical tasks, teacher, professional activity.

Kirish. Jahon ta'lim makonida inklyuziv va maxsus ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga surdopedagogik, reabilitatsion hamda abilitatsion yordam sifatini oshirish bevosita oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalari salohiyatiga bog'liqdir. Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish fenomeni nafaqat akademik-nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, balki ta'lim mazmunining nazariy va pragmatik komponentlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hamda metodik va amaliy kompetensiyalarning integratsiyasini ham taqozo etadi. Dunyo miqyosida bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarning salomatligi hamda psixofiziologik rivojlanish holatini inobatga olishi, ularning ta'lim olishi, shuningdek, maxsus ijtimoiy-pedagogik va psixologik yordamdan foydalanishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashi lozimligi ta'kidlangan.

Adabiyotlar tahlili

"Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya, "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiya alohida ahamiyat kasb etmoqda [1]. Jahonda maxsus ta'limga va nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limiga alohida e'tibor berilib, ularning ta'lim olishi, ijtimoiy hayotga moslashishi, nuqsonlarning oldini olish, nuqsonlarni korreksiyalash, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning faoliyat qirralarini ochib berish hamda jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari uchun zarur sharoitlar ta'minlab borilmoqda. Ayni shu jarayonda eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarga ta'lim berish uchun bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash masalasi ham muhim o'rin tutmoqda. Ilm-fan jadal rivojlanayotgan bir vaqtda bo'lajak surdopedagog o'qituvchilarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy bilimlari, ko'nikma hamda malakalarini oshirish bilan bir qatorda, eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning barcha fuqarolar bilan teng hayot kechirishlarini ta'minlash zarur bo'lib qolmoqda.

L. S. Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolani maktabga nutqiy tayyorlash bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozimligini ta'kidlab, quyidagi fikrni bildiradi: "Birinchisi o'ringa, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'ngina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda ayni shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim" [1]. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari muhim. Ular o'zlarini boshqa bolalar va kishilardan farqli deb his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonib qolmasliklari lozim. Mazkur obyektiv zaruriyat global raqamlashtirish va inklyuziv ta'lim paradigmasi sharoitida bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarlik tizimini tubdan transformatsiya qilishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak mutaxassislarda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan praksiologik modelni takomillashtirish hamda uning pedagogik-innovatsion mexanizmlarini modernizatsiya qilish tadqiqotimizning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

O. F. Teshaboyeva e'tiroficha, surdopedagogning kasbiy kompetentligi – bu eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarda kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan, professional muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar majmuasidir. Maxsus kompetensiyalarni o'quv predmeti va kasbiy faoliyatning muayyan sohasi bo'yicha tayanch hamda asosiy kompetensiyalarni amalga oshirish sifatida baholash mumkin. Ushbu tadqiqotda surdopedagogning maxsus kasbiy kompetentligi tuzilmasi kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarni qamrab olishi ko'rsatilgan [2].

B. Q. Subanova surdopedagog kasbiy kompetensiyasi mazmunini quyidagicha tavsiflaydi: tashkiliy kompetensiya – eshitish nuqsoniga ega bolalarning ta'lim ehtiyojlarini, bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, inklyuziv ta'limni va pedagogik jarayonni tashkil etish; tashxisiy kompetensiya – inklyuziv ta'limda kar, zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar bilan ta'limiy, tarbiyaviy hamda korreksion vazifalarni amaliyotga tatbiq etish natijalarini oldindan baholash; loyihaviy kompetensiya – tashxis ma'lumotlariga (ham umumiy, ham individual) muvofiq maqsadlarni belgilash hamda o'quvchilarning turli ta'lim ehtiyojlari, o'qitish shakllari, usullari va vositalarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatni rejalashtirish; operativ kompetensiya – kasbiy faoliyatda individual yondashuvni ijodiy qo'llash asosida korreksion sinf yoki inklyuziv ta'lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etish; muloqot kompetensiyasi – inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik jarayon subyektlari bilan kommunikativ aloqalarni o'rnatish; texnologik kompetensiya – inklyuziv ta'lim usullari va texnologiyalarini eshitish nuqsoniga ega bolalarning eshitish darajasiga ko'ra qo'llash; korreksion kompetensiya – birlamchi nuqson oqibatida yuzaga keluvchi ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish; tadqiqot kompetensiyasi – surdopedagogik hodisalarni tahlil qilish asosida eshitish nuqsoniga ega bolalar bilan eksperimental tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va natijalarini tahlil qilish. Har bir operatsion kompetensiya asosiy zarur kompetensiyalarning to'liq siklini o'z ichiga oladi [3].

M. Abdullayeva tomonidan bo'lajak surdopedagoglarning imo-ishora nutqi vositasidagi kasbiy kompetensiyalari kodlash va dekodlashni ta'minlovchi ishora nutqining maxsus yozma tizimi hamda uning grafik shakllarini korreksion jarayonlarga yaxlit integratsiyalash asosida aniqlashtirilgan. Shuningdek, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli metalingvistik axborotni tashkil etish, nutqiy materialni tanlash, imo-ishora nutqi vositasida pedagogik strategiyalarni tanlash tamoyillariga imo-ishora tasavvurlarini ierarxik birlashtirish asosida takomillashtirilgan. Mazkur tadqiqotda bo'lajak surdopedagoglarning imo-ishora nutqi vositasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ijtimoiy muhitning refleksiv talablariga muvofiq, subyektning o'z-o'zini tahlil qilish va kognitiv qayta aloqa mexanizmlari hamda ishoralarni verbal-grafik shaklda kodlash va dekodlash jarayonlari integratsiyasi asosida amalga oshirilgan [3].

B. N. Almazov tadqiqotlari ko'rsatishicha, surdopedagogikaning xususiy metodikalari sohaviy audiologo-pedagogik, neyrofiziologik va klinik bilimlar integratsiyasi asosida shakllanib, talabaning reproduktiv (nazariy-metodik) darajadan mahsuldor (surdopedagogik masalalarni mustaqil yechish) darajaga o'tishini ta'minlaydi. Bunda o'z-o'zini nazorat qilish muhitini yaratish va tizimli diagnostika ta'lim sifatini boshqarish hamda kasbiy kompetensiyalar integratsiyasi dinamikasini baholashning eng samarali konseptual-metodik vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak surdopedagoglarni

tayyorlashning ushbu konseptual asoslari milliy normativ-huquqiy hujjatlar va ta'lim standartlari talablarini amaliyotga tatbiq etishning didaktik poydevori hisoblanadi.

AQSh va Yevropa ilmiy maktablari vakillari P. J. Grem va N. R. Neild kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limida oliy ta'lim bosqichidagi nazariy-metodik tayyorgarlik hamda bevosita amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi uzilishni bartaraf etishga qaratilgan modelni ilgari suradilar [5]. P. J. Grem va N. R. Neildning e'tirof etishicha, bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash modeli pedagogik metodlarni biluvchi shaxsni emas, balki bolaning eshitish imkoniyatlari, ilk yosh davri neyropsixologiyasi va oilaviy surdosotsium xususiyatlarini yaxlit tizim sifatida anglay oladigan hamda ularni amaliyotda qo'llay oladigan integrator-surdopedagogni tayyorlashni nazarda tutishi lozim. Karoline Guardino, Joanna E. Cannon va Peter V. Paul mujassam nuqsonli bolalar (eshitish nuqsoniga qo'shimcha ravishda autistik spektr buzilishlari, bolalar serebral falajligi, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi, kognitiv hamda vizual disfunktsiyalar kuzatiladigan holatlar) ta'limi uchun kadrlar tayyorlashning metodologik asoslarini tadqiq etganlar [6].

Karoline Guardino, Joanna E. Cannon va Peter V. Paulning ta'kidlashicha, bo'lajak surdopedagogning metodik tayyorgarligi ta'lim mazmunini kar bolaning faqat sensor imkoniyatlariga moslashtirish bilan cheklanmasdan, axborotni bir vaqtning o'zida vizual, akustik, kinestetik va taktil modalliklar orqali qabul qilish imkonini beruvchi universal ta'lim dizayni konsepsiyasiga asoslanishi lozim. Bunda talaba nazariy-kognitiv bilimlarni bevosita sinf sharoitida real neyropedagogik faoliyatga, perseptiv va sensor muhitni boshqarish bo'yicha amaliy kompetensiyaga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mujassam nuqsonga ega, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan maxsus ta'lim tizimida bo'lajak surdopedagoglarda surdoakustik mutaxassislar, shifokor-neyropsixologlar, otolaringologlar, ergoterapevtlar va ijtimoiy pedagoglar bilan yagona klinik-pedagogik konsilium doirasida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Metodologiya. Tadqiqot metodologik jihatdan kompetensiyaviy, tizimli, integrativ, praksilogik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslandi. Tadqiqot jarayonida surdopedagogik ta'lim tizimida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasiga oid O'zbekiston Respublikasi hamda xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar, maxsus pedagogika, surdopedagogika va inklyuziv ta'lim sohasidagi ilmiy manbalar nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik hodisalarni mantiqiy tahlil qilish, sintez, deduksiya hamda induksiya metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida bo'lajak surdopedagoglarning metodik va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda o'rganilib, ularning kasbiy tayyorgarlik tizimidagi o'rni konseptual yondashuv asosida baholandi. Olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda ularni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berildi.

Natija. Nazariy va diagnostik metodikalarning jamoaviy amaliyot bilan uyg'unlashuvi bo'lajak kadrlarning interprofessional kommunikativ inklyuziyasini ta'minlaydi. **Interprofessional kommunikativ inklyuziya** — eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning kompensator imkoniyatlarini maksimal darajada faollashtirish va uni ijtimoiylashtirish maqsadida tibbiyot, surdodidaktika, muhandislik-texnologiya hamda oilaviy tizimning kommunikativ jihatdan yagona nuqtada jipslashuvidir.

Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining praksilogik modelini takomillashtirish jarayonida kasbiy tayyorgarlikning falsafiy-huquqiy asoslarini konseptualashtirish, oliy surdopedagogik ta'lim standartlari va malaka talablarini integrativ yondashuv asosida modernizatsiyalash bo'lajak surdopedagogning aksiologik barqarorligini ta'minlashda yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, surdopedagogik ta'limda metodik va amaliy kompetensiyalarni alohida shakllantirish bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida uchraydigan murakkab pedagogik vaziyatlarni samarali hal etish uchun yetarli imkoniyat yaratmaydi. Mazkur kompetensiyalarning integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lash, kasbiy vazifalarni mustaqil rejalashtirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Nazariy manbalar va ilg'or pedagogik tajribalar tahlili natijasida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasi bo'lajak surdopedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim omili ekanligi aniqlandi. Integrativ yondashuv talabaning nafaqat maxsus fanlarga oid bilimlarni puxta egallashini, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda samarali qo'llash, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash hamda korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni loyihalash va baholash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Shuningdek, konseptual-huquqiy asoslarning tahlili bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida xalqaro standartlar, inklyuziv ta'lim tamoyillari va milliy ta'lim siyosati o'rtasida uzviy uyg'unlik mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu uyg'unlik ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliyot ulushini kengaytirish zaruratini asoslaydi.

Tahlil natijalari metodik tayyorgarlikni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashda universal ta'lim dizayni, multimodal ta'lim texnologiyalari, interprofessional hamkorlik va refleksiv faoliyat muhim o'rin egallashini ko'rsatdi. Ayniqsa, pedagog, psixolog, logoped, audiolog, shifokor hamda ota-onalar bilan hamkorlikka asoslangan ta'lim modeli bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy moslashuvchanligi va amaliy faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar asosida metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida nazariy bilimlar, kasbiy-amaliy ko'nikmalar, refleksiv faoliyat, kommunikativ kompetensiya, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda kasbiy qadriyatlar tizimining o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanishi lozimligi belgilandi. Mazkur komponentlarning yagona tizim sifatida shakllanishi bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan pedagogik yordam sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Natijalar tahlili asosida metodik va amaliy kompetensiyalarni integratsiyalash bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi aniqlandi. Integrativ yondashuv nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqligini ta'minlab, ta'lim jarayonida uchraydigan kasbiy vaziyatlarni samarali hal etish imkonini yaratadi. Shuningdek, metodik kompetensiyalarni amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot va refleksiv faoliyat bilan uyg'unlashtirish natijasida talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning individual ta'lim ehtiyojlariga mos ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalari rivojlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kasbiy kompetensiyalarni kompleks shakllantirish interprofessional hamkorlikni kuchaytirish, inklyuziv ta'lim talablariga moslashish hamda pedagogik faoliyat sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining bo'lajak surdopedagog kasbiy tayyorgarligiga ta'siri

Integratsiya yo'nalishi	Shakllanadigan kompetensiya	Kutilayotgan natija
Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish	Metodik kompetensiya	Nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash
Pedagogik amaliyot va refleksiya	Refleksiv kompetensiya	Faoliyatni tahlil qilish va takomillashtirish
Individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash	Diagnostik kompetensiya	Ta'lim jarayonini individuallashtirish
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash	Texnologik kompetensiya	Ta'lim samaradorligini oshirish
Mutaxassislararo hamkorlik	Kommunikativ interprofessional kompetensiya va	Kompleks pedagogik yordamni tashkil etish
Inklyuziv ta'lim tamoyillarini qo'llash	Kasbiy-amaliy kompetensiya	Inklyuziv muhitda samarali pedagogik faoliyat olib borish

Jadvalda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining asosiy yo'nalishlari hamda ularning bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga ta'siri aks ettirilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, nazariy bilimlar, amaliy faoliyat, refleksiya, diagnostika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interprofessional hamkorlikning yagona tizim sifatida uyg'unlashuvi kasbiy kompetensiyalarning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi. Bunday integratsiya bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy moslashuvchanligini oshirib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim va korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muhokama

Surdopedagogik ta'lim tizimida metodik va amaliy kompetensiyalarni integratsiyalash bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, surdopedagog faoliyati faqatgina maxsus fanlarga oid bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi. U eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini chuqur tushunishi, ularning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlashi, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni loyihalashi hamda turli pedagogik vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qila olishi zarur. Shu sababli metodik tayyorgarlikning amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvi kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, metodik va amaliy kompetensiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy moslashuvchanligini ham kuchaytiradi. Nazariy bilimlarning pedagogik amaliyot jarayonida muntazam qo'llanilishi talabalarda refleksiv fikrlashni rivojlantirib, o'z faoliyatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asoslangan yechimlar orqali bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday yondashuv kompetensiyaviy ta'lim modelining asosiy talablariga to'liq mos keladi.

Muhokama natijalari, shuningdek, surdopedagoglarni tayyorlashda interprofessional hamkorlik alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy maxsus ta'lim tizimida pedagogning logoped, psixolog, audiolog, shifokor, ijtimoiy pedagog hamda ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Bunday hamkorlik bolaning rivojlanish dinamikasini kompleks baholash, individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va korreksion ishlar samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasi nafaqat pedagogning shaxsiy kasbiy rivojlanishiga, balki ta'lim jarayonining umumiy sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nazariy manbalar tahlili asosida universal ta'lim dizayni tamoyillarini surdopedagoglarni tayyorlash tizimiga keng joriy etish zarurligi ham asoslandi. Axborotni vizual, akustik, kinestetik va taktil modalliklar orqali yetkazishga asoslangan ta'lim texnologiyalari bo'lajak mutaxassislarning innovatsion pedagogik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning individual imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish hamda inklyuziv ta'lim muhitida sifatli pedagogik xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, muhokama jarayonida aniqlanishicha, metodik va amaliy kompetensiyalarni integratsiyalash oliy ta'lim muassasalarida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni kamaytirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarini real pedagogik vaziyatlar, muammoli topshiriqlar, amaliy loyihalar, keys-stadilar hamda refleksiv tahlil elementlari bilan boyitish talabalarning mustaqil fikrlash, kasbiy muammolarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish

kompetensiyalarini rivojlantiradi. Natijada bo'lajak surdopedagoglar zamonaviy ta'lim muassasalarida samarali faoliyat yurita oladigan, innovatsion yondashuvlarni qo'llashga tayyor hamda kasbiy jihatdan raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanadi.

Metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasiga asoslangan kasbiy tayyorgarlik modeli surdopedagogik ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini kompleks rivojlantirish hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim va korreksion-pedagogik xizmatlar samaradorligini ta'minlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy ta'limni takomillashtirish, xalqaro tajribalarni milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirish va maxsus pedagogika sohasida innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining surdopedagog kasbiy faoliyatiga ta'siri

Muhokama yo'nalishi	Integratsiyaning mazmuni	Kasbiy faoliyatga ta'siri
Nazariya va amaliyot uyg'unligi	Olingan nazariy bilimlarni pedagogik amaliyotda qo'llash	Kasbiy vaziyatlarni samarali hal etish va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi
Refleksiv faoliyat	O'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholash	Kasbiy o'sish va pedagogik mahoratning muntazam takomillashuvi ta'minlanadi
Individual yondashuv	Bolalarning psixofiziologik va ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish	Ta'lim va korreksion ishlarning samaradorligi ortadi
Interprofessional hamkorlik	Pedagog, logoped, psixolog, audiolog, shifokor va ota-onalar bilan hamkorlik	Kompleks pedagogik va korreksion yordam sifati yaxshilanadi
Universal ta'lim dizayni	Vizual, akustik, kinestetik va taktil metodlardan foydalanish	Ta'lim jarayonining inklyuzivligi va qulayligi ta'minlanadi
Innovatsion pedagogik texnologiyalar	Raqamli va interfaol metodlarni qo'llash	Ta'lim sifati hamda talabalarning kasbiy kompetentligi oshadi
Kompetensiyaviy yondashuv	Bilim, ko'nikma va malakalarni yagona tizimda rivojlantirish	Raqobatbardosh va zamonaviy surdopedagogni tayyorlashga xizmat qiladi

Jadvalda metodik va amaliy kompetensiyalar integratsiyasining surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlari tizimlashtirilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nazariya va amaliyot uyg'unligi, refleksiv faoliyat, individual yondashuv, interprofessional hamkorlik hamda universal ta'lim dizayni tamoyillarining birgalikda qo'llanilishi bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini kompleks rivojlantiradi. Mazkur omillar pedagogik faoliyat sifatini oshirish, inklyuziv ta'lim talablariga moslashish hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim va korreksion xizmatlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Surdopedagogik ta'limda metodik va amaliy kompetensiyalarni integratsiyalash bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Mazkur integratsiya nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqligini ta'minlab, kasbiy vazifalarni samarali bajarish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning individual ta'lim ehtiyojlariga mos pedagogik yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kompetensiyaviy yondashuv, interprofessional hamkorlik, universal ta'lim dizayni hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga izchil joriy etish surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv maxsus va inklyuziv ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligi, mustaqil fikrlashi va pedagogik mahoratini yuksaltirish uchun zarur sharoit yaratadi. Metodik va amaliy kompetensiyalar uyg'unligi ta'lim sifati hamda korreksion-pedagogik xizmatlar samaradorligini oshirishga, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga hamda ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bois surdopedagoglarni tayyorlash tizimini kompetensiyaviy va integrativ yondashuv asosida yanada takomillashtirish maxsus pedagogika rivojining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva M. M. *Bo'lajak surdopedagoglarning imo-ishora nutqi vositasidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish*: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 24 b.
2. Выготский Л. С. *Проблемы дефектологии*. – Москва: Просвещение, 1995. – 524 с.
3. Teshaboyeva O. F. *Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish*: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 24 b.
4. Subanova B. Q. *Bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish*: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 24 b.
5. Knoors H., Marschark M. *Evidence-Based Practices in Deaf Education*. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 504 p.
6. Guardino C., Cannon J. E., Paul P. V. *Deaf and Hard of Hearing Learners With Disabilities: Foundations, Strategies, and Resources*. – New York: Routledge, 2022. – 340 p.